

- Word Formation: **Mayda-chuyda** ('small details', full reduplication)

Both English and Uzbek have a long history of borrowing words. English has borrowed extensively from Latin, French, and Germanic languages, while Uzbek has absorbed words from Persian, Arabic, and Russian.

- English Example: "I'm playing the piano for you." – Ernest Hemingway
- Word Formation: Piano (borrowed from Italian)
- Uzbek Example: "Telefon go'shagini sekin ko'tardi." – Tog'ay Murod
- Word Formation: Telefon (borrowed from French)

Why Study Word Formation?

Studying the peculiarities of word formation in English and Uzbek offers several benefits:

1. For Linguists: Understanding word formation helps in analyzing language development and change.
2. For Translators: Recognizing different word formation patterns improves accuracy in translation.
3. For Language Learners: Knowing how words are formed makes it easier to expand vocabulary and understand new terms.

Conclusion

Although English and Uzbek originate from different linguistic backgrounds, they share many word formation techniques. By studying these processes, we gain insight into how languages evolve, adapt, and influence one another. Whether through affixation, compounding, or borrowing, both languages demonstrate creativity and flexibility in word formation. Understanding these mechanisms is essential not just for linguists but also for anyone who wishes to master English or Uzbek at a deeper level.

References

1. Emerson R. W., Self-Reliance and Other Essays. Boston: James Munroe and Company. 1841.
2. Qodiriy A., O'tkan Kunlar. Tashkent: O'zbekiston Milliy Nashriyoti. 1926.
3. Williams S., The Old Astronomer. London: Macmillan & Co. 1868.
4. Sulton I., Boqiy dunyo. Tashkent: G'afur G'ulom Publishing House. 1990.
5. Fitzgerald F. S., The Great Gatsby. New York: Charles Scribner's Sons. 1925.
6. Hoshimov O., Dunyoning ishlari. Tashkent: Sharq Publishing House. 1985.
7. Twain M., Adventures of Huckleberry Finn. New York: Charles L. Webster & Company. 1885.
8. Ahmad S., Ufq. Tashkent: Yangi Asr Avlodi. 1977.
9. Hemingway E., A Moveable Feast. New York: Scribner. 1964.
10. Murod T., Otamdan qolgan dalalar. Tashkent: Adabiyot Publishing House. 1994.

ARAB VA O'ZBEK TILLARIDAGI KELISHIKLARNING QIYOSIY TAHLILI

Ravshanova Risolat,
Oriental universiteti arab tili yo'nalishi talabasi
Ilmiy rahbar: dotsent, f.f.n.N.Ahmedova

Annotatsiya. Maqolada arab va o'zbek tillarida kelishiklar va ularning o'zaro o'xshash hamda farqli xususiyatlari, ularga xos jihatlar misollar yordamida tahlil qilingan. Arab tili flektiv til

bo'lganligi sababli ko'p jihatdan o'zbek tilidan farq qiladi. Xususan, kelishiklar va ularning vazifalari, turli ma'no ifodalashi jihatdan ikki til xususiyatlari qiyoslangan.

Kalit so'zlar: ot, ism, kelishik tizimi, bosh kelishik, tushum kelishigi, chiqish kelishik, qaratqich kelishigi, tovush o'zgarishlari.

Otlarga qo'shib, ularni o'zidan keyin kelgan boshqa so'zlarga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiluvchi grammatik shakllar tizimi kelishik shakllari sanaladi. Kelishiklarning soni tillarda bir xil emas. Hozirgi zamon ingliz tilida ikkita, nemis tilida to'rtta, arab tilida uchta, o'zbek va rus tillarida oltita, eston tilida o'n beshta, venger tilida esa yigirmatadan ortiq kelishiklar bor. Xitoy-tibet tillarida va hozirgi fransuz tilida kelishik umuman yo'q. Bu tillarda kelishik ma'nosi boshqa grammatik vositalar yordamida ifodalanadi. Biz quyida kelishiklar qiyosini o'zbek va arab tillari misolida tahlil qilamiz.

O'zbek tilida oltita kelishik mavjud bo'lib, ularning har birining o'z shakli va vaziaflari mavjud. Bosh kelishik shakli maxsus qo'shimchaga ega emas. Bu shakl kim?, nima?, qayer? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi va gapda ko'pincha ega, ot, kesim, undalma vazifasida keladi. Masalan: 1.*Aziza* – 2.*bosqich talabasi*. 2.*O'zbekistonning poytaxti* – *Toshkent*. 3.*Toshkent, munchalar go'zalsan!* Qaratqich kelishigi -ning qo'shimchasi orqali bog'lanish sodir bo'ladi va bunda qaratqich kelishigi shaklidagi so'z-qaratqich, qaratqich bog'lanib kelgan so'z esa qaralmish deyiladi. Qaratqich kelishigida tovush tushish hodisasi ham kuzatilishi mumkin: *men+ning=mening*. Tushum kelishigi -ni qo'shimchasi bilan hosil qilinadi. Tushum kelishigi shaklini olgan so'z doimo o'timli fe'lga bog'lanib keladi. Tushum kelishigidagi so'z bilan o'timli fe'l yonma-yon kelsa, ko'pincha tushum kelishigi qo'shimchasi tushib qoladi. Masalan, *kitobni o'qidim* - *kitob o'qidim*. Tushum kelishigidagi so'z gapda doimo to'ldiruvchi vazifasida keladi. Bu kelishik shaklida ham tovush tushish hodisasi ro'y beradi: *men+ni=meni*. Jo'nalish kelishigi shakli -ga, -ka, -qa qo'shimchalariga ega bo'lib, o'rin-joy otlariga qo'shib, qayerga? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda o'rin holi, to' vazifasida keladi. Payt otlariga qo'shib, qachon? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda payt holi vazifasini bajaradi. [Sayfullayeva, 2009, 211] Shaxs va narsa otlariga qo'shib, kimga?, nimaga? so'rog'iga javob bo'ladi va gapda to'ldiruvchi vazifasida qo'llaniladi. Jo'nalish kelishigida tovush almashinishi va tovush ortirilishi hodisalari ro'y berishi mumkin. Masalan: *yurak+ga = yurakka*, *qishloq+ga=qishloqqa*, *u+ga=unga*. O'rin-payt kelishigi -da qo'shimchasini oladi va o'rin-joy otlariga qo'shib, qayerda? so'rog'iga javob bo'ladi va hokim qism ifodalagan harakatning o'rnini bildiradi. Bunday otlar gapda o'rin holi vazifasida keladi. Payt otlariga qo'shib, qachon? so'rog'iga javob bo'ladi va hokim qismda ifodalangan harakatning paytini bildiradi. Bunday so'zlar gapda payt holi vazifasida keladi. Shaxs va narsa otlariga qo'shib, kimda?, nimada? so'roqlariga javob bo'ladi. Bunday otlar gapda to'ldiruvchi vazifasida keladi. Bu kelishik shaklida tovush ortishi hodisasi kuzatilishi mumkin. Misol uchun: *u+da=unda*. Chiqish kelishigi -dan qo'shimchasini oladi va u o'rin-joy otlariga qo'shib, qayerdan? so'rog'iga javob bo'ladi va o'rin holi vazifasini bajaradi. Payt otlariga qo'shib, qachon? so'rog'iga javob bo'ladi va payt holi vazifasida keladi. Shaxs va narsa otlariga qo'shib, kimdan?, nimadan?so'roqlariga javob bo'ladi va to'ldiruvchi bo'lib keladi. [Sayfullayeva, 2009, 211] Ba'zan ayrim otlar, sifat doshlar va boshqa so'zlarga qo'shib, nima sababdan? so'rog'iga javob bo'ladi va sabab holi vazifasida keladi. Ba'zan tushum kelishigi o'rnida chiqish kelishigi shakli ishlatilinishi mumkin. Lekin ularning ma'nosida ma'lum farq bor.

Tushum kelishigidagi soʻz butunni, chiqish kelishigidagi soʻz qismni bildiradi. Bu kelishik shaklida ham tovush ortishi hodisasi roʻy berishi mumkin. Masalan: *u+dan=undan*.

Arab tilda uchta kelishik bor va u 'i(عَرَابٌ) deb ataladi. Ular: 1.Bosh kelishik. 2.Qaratqich kelishigi. 3.Tushum kelishigi. Bu kelishiklar oʻziga xos qoʻshimchalarga ega boʻlib, oʻzbek tilidagi qolgan qoʻshimchalar vazifasini predloglar deb atalmish soʻzlar bajaradi. Kelishikda turlanayotga soʻz ikkala jinsda ham noaniq holatda bosh kelishik shakli ُ(-un) qoʻshimchasini oladi. Aniq holatda esa ُ(-u) qoʻshimchasini oladi. Qaratqich kelishigida turlanayotgan soʻz ham huddi shu tartibda ikkala jinsda ham noaniq holatda َ(-in)qoʻshimchasini, aniq holatda esa َ(-i) qoʻshimchasini oladi. Tushum kelishigi ikkala jinsda ham noaniq holatda َ(-an) qoʻshimchasini, aniq holatda esa َ(-o)qoʻshimchasini oladi. Bu turlanish uch kelishikli turlanish deyiladi va shu yoʻsinda turlanuvchi soʻzlar uch kelishikli soʻzlar deyiladi. [Ibrohimov, 2009, 124] Quyida muzakkar va muannas jinsga tegishli soʻzni kelishikda turlaymiz. Avval noaniq holatda ikkita jinsda bosh kelishikda koʻrib chiqamiz:

muannas jinsida مَدْرَسَةٌ(madrosatun-maktab)

muzakkar jinsida كِتَابٌ(kitabun-kitob)

Huddi shu soʻzlar endi qaratqich kelishigida muannas jinsda مَدْرَسَةٍ(madrosarin-maktabning), muzakkar jinsda كِتَابٍ(kitabin-kitobning)shaklida boʻladi.

Tushum kelishigida muannas jinsda مَدْرَسَتُهُ(madrosatan-maktabni), muzakkar jinsda esa كِتَابُهُ(kitaban-kitobni) shaklida boʻladi. Aniq holatdagi soʻzlarga kelsak, ular ham ikkita jinsda bosh kelishikda muannas jinsda أَلْمَدْرَسَةُ(almadrosatu-maktab), muzakkar jinsda أَلْكِتَابُ(alkitabu-kitob) shakliga ega boʻladi.

Huddi shu soʻzlar endi qaratqich kelishigida muannas jinsda أَلْمَدْرَسَةِ(almadrosatin-maktabning), muzakkar jinsda أَلْكِتَابٍ(alkitabin-kitobning) shaklida boʻladi. Tushum kelishigida muannas jinsda أَلْمَدْرَسَتِ(almadrosata-maktabni), muzakkar jinsda esa أَلْكِتَابَتِ(alkitaba-kitobni) shaklida boʻladi. Aynan tushum kelishigidagi soʻz tanvin fathaga tugasa, uning oxiriga oʻqilmaydigan alif harfi yoziladi. Ammo “ta-mamduta” yoki yoʻlgʻiz “hamza” soʻz oxirida tanvin fatha bilan kelsa, undan keyin bu alif yozilmaydi. Arab tilida ot va sifatlarning asosiy qismi uch kelishikli soʻzlar hisoblanadi va ular yuqoridagi jadval asosida turlanadi.

Arab tilida qaratqich va tushum kelishigida bir xil qoʻshimchaga ega boʻlgan qator soʻzlar mavjud. [Hasanov, 2019, 89] Bular ikki kelishikli soʻzlar deyiladi. Ikki kelishikli soʻzlar ال artiklisiz hamda tanvin qoʻshimchasiz kelganda ham aniq holatda deb hisoblanadi. Ular bosh kelishikda –u, qaratqich-tushum kelishigida –a harakatini oladi. Bunday soʻzlar ال artikli bilan yoki izofa shaklida yoki birikma olmoshi bilan birga kelganda uch kelishikli turlanishga aylanadi.

Yuqoridagilardan maʼlumki, oʻzbek tilida kelishiklar soni oltita boʻlsa, arab tilida uchta kelishik shakli mavjud. Oʻzbek tilidagi qolgan kelishik shakllari arab tilida predloglar orqali ifodalanadi.

Masalan:(fi(-da)في predlogi orqali oʻzbek tilidagi oʻrin-payt kelishigini ifodalashi mumkin. (الْعَالَمُ فِي)filalʼami-olamda) degan maʼnoni bildiradi. (إِلَى)ila(-ga) predlogi esa oʻzbek tilidagi joʻnalish kelishigini ifodalaydi.

Masalan:(إِلَى)ilalbayti-uyga) degan maʼnoni bildiradi.(min(-dan)مِنْ predlogi esa oʻzbek tilidagi chiqish kelishigini ifodalaydi. Masalan:مِنْ مُحَمَّدٍ (minmuhammadin)Muhammaddan)maʼnosini ifodalaydi.

Arab tilida ikkilik sondagi soʻzlar, kelishiklarda quyidagicha turlanadi:

bosh kelishik, noaniq holatda, muannas jinsda طَالِبَاتَان (tolibatani-ikki toliba), aniq holatda ham huddi shunday, الطَّالِبَاتَان (attolibatani) shaklida bo'ladi.

Qaratqich-tushum kelishigida esa noaniq holatda طَالِبَتَيْن (tolibatayni-ikki tolibaning yoki ikki tolibani), aniq holatda esa الطَّالِبَتَيْن (attolibatayni) shaklida bo'ladi. Muzakkar jinsda esa bosh kelishik, noaniq holatda طَالِبَان (tolibani-ikki talaba), aniq holatda الطَّالِبَان (attolibani), qaratqich-tushum kelishigida noaniq holatda طَالِبَيْن (tolibayni-ikki talabaning yoki ikki talabani), aniq holatda الطَّالِبَيْن (attolibayni) shaklida bo'ladi. Ko'rib turganingizdek, ikkilik sondagi so'zlarning qaratqich va tushum kelishiklari bir xil qo'shimchaga ega. Shuningdek, aniq va noaniq hollarda ham bir xil kelishik qo'shimchalarini oladi. Muannas va muzakkar to'g'ri ko'plikdagi so'zlarda qaratqich va tushum kelishiklari bir xil qo'shimcha oladi hamda aniq va noaniq holatlarda kelishik qo'shimchalari o'zgarmaydi.

Arab tilida kelishikda turlanmaydigan otlar ham mavjud bo'lib, oxiri "-an" yoki "-a" bilan tugaydigan so'zlar shu qo'shimcha alif bilan yozilsa ham, alif maqsura bilan yozilsa ham, har uch kelishikda bir xil qo'shimcha qabul qiladi.

Alif maqsura bilan tugaydigan sifatlar, masalan: جَوَّعَى (java'-och), siniq ko'plikdagi otlar, masalan: مَرَضَى (mard'zo-kasallar). Bular kelishikda turlanmaydigan so'zlar deyiladi.

Shunday qilib, o'zbek tili va arab tilida kelishiklarning ifodalanishi bo'yicha quyidagi xulosalar kelib chiqdi:

Birinchidan, arab tili va o'zbek tilida kelishiklarning o'zaro o'xshashligi va farqlari mavjud.

Ikkinchidan, arab tilida ikkilik va ko'plik sonlar kelishiklarda farqli turlanadi va kelishikda turlanmaydigan so'zlar ham mavjud.

Uchinchidan, o'zbek tilida mavjud, ammo arab tilida mavjud bo'lmagan uch kelishik: jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklari predloglar bilan ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009.
2. Ibrohimov N. Arab tili grammatikasi. – Namangan, 2009
3. Hasanov M. Arab tili. – Toshkent, 2019.
4. Astanova G. Arab tilidan boshlang'ich kurs. – Buxoro, 2023.

ARAB VA O'ZBEK TILLARIDA RANG-TUS LEKSEMALARINING LINGVOMADANIY TADQIQI

*Ravshanova Risolat, Oriental universiteti Filologiya fakulteti
arab tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent N.Ahmedova*

Annotatsiya. Maqolada arab va o'zbek tillarida rang-tus leksemalari lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan. Ranglarning til va madaniyatdagi ahamiyati, ularning semantik xususiyatlari, shuningdek, bu ranglarning madaniy va falsafiy ma'nolari o'rganilgan. Arab va o'zbek tillaridagi asosiy rang nomlari, ularning konnotatsiyalari va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Ranglar va